



TIBBIYOT OLIY O'QUV YURTI TALABALARINING TIBBIY TUSHUNCHALARINI SHAKILLANTIRISH METODIKKASI

Bakayev Najmiddin Bakayevich

Osiyo Xalqaro Universiteti
Fundamental tibbiyot kafedrası
dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14700969>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10- Yanvar 2025 yil

Ma'qullandi: 15- Yanvar 2025 yil

Nashr qilindi: 20- Yanvar 2025 yil

KEY WORDS

*фиклаш, ривожланиш,
тафаккур, онг, шахснинг фикри.*

ABSTRACT

Маколада инсоният тараккиётининг замонавий босқичи, инсоннинг имкониятларини ривожлантириш учун яратилган шароитлар ва жамиятни яратишда инсоннинг фикрлаш асосларини тавсифлайди.

O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligining to'xtovsiz rivojlanishi yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlaydigan oliy o'quv yurtlarining mohir o'qituvchilari zamasidagi vazifa. Bu masuliyatli topshiriqni amalga oshirish uchun, albatta, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Ushbu vazifalarni so'zsiz amalga oshirish uchun **Yurtboshimiz** tomonidan yaratilgan barcha imkoniyatlar hech kimga sir emas.

Darhaqiqat, insoniyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichi insonning texnik imkoniyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishga qaratilgan axborot jamiyatini yaratish har tomonlama fikrlash bilan tavsiflanadi. Texnik tafakkur – bu dunyoni muhandislik idrokiga qaratilgan texnik tushunchalarning asosiy tarkibiy qismlaridan biri. Ushbu muammoda yetakchi o'rnini axborot jamiyati talablariga javob beradigan shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan ta'limga beriladi. Kasbning eng muvaffaqiyatli ustalari ijodga kirishishdan oldin ham texnik ijodkorlik bilan shug'ullangan, o'qish va kasb egallash davrida ijodiy qobiliyatlari rivojlangan yosh ishchilardir. Xodimga xos bo'lgan ijodiy shaxs fazilatlarini tarbiyalash talabalarning texnik ijodiyotini tashkil etish va maqsadli pedagogik rahbarlik qilish bilan uzviy bog'liqdir. Bu yerda asosiy rol ijodiy ta'limi ustasiga yuklangan. Texnik tushuncha, ijodkorlik ta'riflaridan eng muvaffaqiyatlisi, mening fikrimcha, quyidagilar: **talabalarning texnik tushuncha va ijodiyoti** – bu shunday yuksak faoliyat bo'lib, uning natijasi foyda va obyektiv yoki subyektiv yangilikka ega bo'lgan mahsulotdir. Texnik tushuncha ijodkorlikning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: texnik tushuncha:

- a) fazoviy tasavvur va tasvirlash;
- b) dizayn zukkoligi;
- c) bilimlarni muayyan muammoli vaziyatda qo'llash qobiliyati.

Bo'lg'usi tibbiyot xodimlarini tayyorlaydigan asosiy oliy o'qiv yurtida ta'lim texnologik ta'limning ikkinchi bosqichi bo'lib, bunda eng muhim vazifalaridan biri talabalarni ongli va mas'uliyatli hayot hamda kasbiy fazilatlarni tanlashga tayyorlashdir. Texnik (tushuncha) tafakkur materiya, energiya va axborotni odamlarga kerakli mahsulotga aylantirishning optimal vositalarini izlashni o'z ichiga oladi. Rivojlangan texnik tushuncha tibbiyotda ilgari noma'lum bo'lgan asbob - uskunalar va ularning alohida komponentlari va mexanizmlarining ishlash tamoyilini tezda tushunishga, umumiy sxemada va struktura qismlarining o'zaro ta'sirida harakatlanishga imkon beradi. Bir qator fundamental,

eksperimental va amaliy psixologik tadqiqotlar texnik tafakkurni rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan (Kudryavsev T., Lomov B.F., Lednev V.S., Esaulov A.F., Yakimanskaya I.S., Tolmachev A.A. va b.). I.S.Yakimanskayaning tadqiqotlaridan ko'rinib turibdiki, talabalarning texnik(tushuncha)tafakkurini rivojlantirishda grafik mashg'ulotlar muhim rol o'ynaydi, bunda texnik tasvirlarni yaratish va ular bilan ishlash qobiliyati shakllanadi. Texnik usulda ishlash nafaqat statik holatda bo'lgan aniq bir obyekt (tibbiy asbob- uskuna, mexanizm) haqida tasavvurga ega bo'lish, balki uni harakatda, o'zgarishda, boshqa texnik obyektlar bilan o'zaro ta'sirida ya'ni, dinamikada ko'rish. Har qanday grafik model planar tasvir bo'lib, unga ko'ra haqiqiy texnik obyektning fazoviy holatini qayta yaratish talab etiladi. Chizmaning texnik obyektlari tasvirlari bilan ishlash texnik tafakkurning eng muhim xususiyatidir. [138, 54] A.A.Tolmachev o'quvchilarda texnik(tushuncha) tafakkurni rivojlantirish uchun asosiysi o'quvchida ijodiy izlanish muhitini yaratish ekanligini asoslaydi. Har bir bolaning o'z bilim yoki, o'z kashfiyotlar dunyosi bor. Har bir talabaning xususiyatlarini o'rganish, ularni psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlashda davomiylik hamda izchillikni saqlashga harakat qilish kerak. Ma'lumki, inson faoliyatining doimiy kuchli motivlaridan biri bu qiziqishdir. Talabalarning qiziqishi orqaligina texnik(tushuncha) tafakkur rivojlanishi mumkin. Axir, atrofdagi voqelikni bilish va inson manfaatlari yo'lida o'zgartirish – bu «nima?» emas, balki «qanday?» degan savolga javob izlash bilan bog'liq maqsadli belgidir. [121,185] Texnik tafakkur uch komponentdan iborat: tushuncha – tasvir – harakat. T.V.Kudryavsev o'z asarlarida «Texnik tafakkur maqsad, tushuncha, fikrlash vazifasi asboblari, texnologiya yordamida amalga oshirilgan va aqliy faoliyat jarayonida va natijasida moddiy narsa yaratilgan joyda namoyon bo'ladi» deb alohida ta'kidlagan. [74, 114] Talabalar ongida uch o'lchamli jismning(tushuncha) tasvirini yaratish va undan texnik masalalarni hal qilishda foydalanish imkonini beruvchi vakillik ko'rinishidagi tushunchalar, tasvirlar bo'lishi kerak. Dastlabki bosqichda talabalarning texniktushunchali faoliyati obyektning idrok etish va kuzatishdan boshlanadi. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, texnik(tushuncha) tafakkurni rivojlantirish uchun talabalar eng oddiy tibbiy modellarni, asbob – uskunalarini, mexanizmlarni, shuningdek, dizayni sodda bo'lgan mahsulotlarni bajarishlari kerak. V.S.Lednev tadqiqotlari asosida «Texnologiya» fanining mazmunida uchta komponentni farqlash mumkin: **texnik, texnologik va texnik-texnologik.**

Texnik tizimlar asoslarini va talabalarning texnik tushunchani shakllantirish jarayonining samaradorligini o'rganish uchun texnik muammolarni hal qilish metodologiyasidan foydalanish kerak. Talabalar masalaning shartlarini tushungandan keyingina masalani yechishni boshlashlari muhim. Maqsad muammoni hal qilish emas, balki talabalarning texnik tushunchasini rivojlantirish vositasidir. Bular «Texnologiya» darslarida ham loyihaviy, ham texnologik topshiriqlar, ham zarur vositalarni tanlashda, tibbiy asbob-uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashda va boshqalarda paydo bo'ladigan vazifalar bo'lishi mumkin. Texnik(tushuncha)tafakkur sifati talabalar texnologiya amaliy mashg'ulotlarida tanishadigan konstruktiv va texnologik masalalarni yechish jarayonida shakllanadi. Ish jarayonida maktab o'quvchilari bunday muammoni hal qilishda javob berishlari kerak bo'lgan savollarni aniq va malakali qo'yishni, o'qituvchining rahbarligi ostida chizmalar va diagrammalarni tushunishni o'rganadilar. [79, 85] Yangi obyektning yaratishda yoki unga yangi iste'mol sifatlarini berishda texnik(tushuncha) tafakkur namoyon bo'ladi. Loyihaviy o'qitish usulidan foydalangan holda, talabalar muammolarni hal qilishning butun texnologiyasini – savol berishdan tortib, natijani taqdim etishgacha tushunadilar. Til eng muhim muloqot vositasi bo'lib, usiz insoniyat jamiyatining mavjudligi va rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Ijtimoiy munosabatlarda, aloqa vositalarida ro'y berayotgan o'zgarishlar (yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish) talabalarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishni, til kompetensiyasini hamda texnik(tushuncha) tafakkurni rivojlantirishni talab qiladi. Til tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, tilni amaliy bilish, unda tushuncha, fikrlash qobiliyatlarisiz insoniyatni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Shuning uchun, lotin tili amaliy mashg'ulotlarida tibbiy texnik tushunchali bo'lg'usi shifokor talabalarini o'qitish jarayonida har doim rivojlantirishi kerak bo'lgan asosiy qobiliyat sifatida qaraladi.

Shuni ta'kidlash joizki, lotin tili amaliy mashg'ulotlarida texnik tushunchani rivojlantirish haqida gapirganda, umuman tilda tafakkur, tilning tuzilishidan foydalanish, xususan, tilning leksik, atama, atama elementlari bilan ifodalangan tushunchalar tizimini o'rganish, o'zlashtirish tushuniladi. So'nggi yillarda chet tilini o'qitish metodologiyasidaboshqa tillarda bo'lganidek, «tibbiy lotin tilida tushunish, fikrlash» zarurati muammosi odatiy holga aylandi. «Til o'rganayotganda talabalar asosan shu tilda tibbiy texnik tushunchani va fikrlashni o'rganishlari kerak. Shunday ekan, til o'rganishning to'liq jarayoni deganda talabalar tafakkurini bir til bazasidan boshqa til bazasiga o'tkazish jarayoni tushunilishi kerak. Haqiqatan ham o'rganilayotgan tilida tushungan, fikrlagan odam o'z ona tili vositalaridan foydalanishga ehtiyoj sezmaydi, ya'ni, to'g'ridan-to'g'ri kasbiy lotin tilida texnik tushunish, fikrlash qobiliyatiga ega bo'ladi. Tibbiy lotin tilida fikrlash o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi va ona tilidagi fikrlash bilan taqqoslaganda o'ziga xos xususiyatga ega, shuning uchun tibbiy lotin tili o'qituvchilari lotin tilidagi aloqa vositalarini o'zlashtirish bilan bir qatorda, talabalar o'rtasida o'zgacha tushuncha, fikrlash shakllanishiga alohida e'tibor berishlari kerak. Tibbiy lotin tili o'qituvchilari talabalarda tibbiy texnik tushunchani rivojlantirish uchun dars davomida til o'rganish jarayonini iloji boricha ijodiy qilish, ta'limga intellektual faoliyat elementlarini kiritishlari kerak. Chet til o'qitish metodikasida **tafakkur tushunchasini** yaratgan rus psixologi B.V. Belyaev bu muammo yechishga harakat qildi. U taklif qilgan javob chet tilini talabaning turli faoliyati bilan «bog'lash», o'qitishda tilni nafaqat muloqot uchun (ayniqsa, mexanik, kommunikativ bo'lmagan nutq uchun emas), balki talabaning tushunishi, fikrlashi, idroki, tasavvuriga vositachilik qilish vositasi deb qarash kerak. [25, 56] Tafakkur faoliyati bevosita talabalarining o'quv faoliyatini «an'anaviy» turlariga kiritilishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi lug'atlarni, matnlarni yodlashda va takrorlashda fikrlash jarayonlari katta rol o'ynaydi. Shu tarzda, talabalar fikrlashini faollashtiradigan va rag'batlantiradigan tarzda tegishli metodologiyani yaratish mumkin. Texnik(tushuncha)tafakkur muammoli vaziyatni yaratish va ushbu vaziyatda intellektual faoliyatni rag'batlantirishdan boshlanadi. Ko'rinib turibdiki, bu yerda ta'lim faoliyatini «intellektualizatsiya qilish»ning eng muhim kaliti yotadi. Bu talaba uchun asta-sekin murakkablashib borayotgan vazifalar zanjiri shaklida ishlaydigan o'zaro bog'liq vazifalar tizimiga aylanishi kerak; ushbu vazifalar ta'limning barcha jabhalariga kirib borishi va unda qo'llaniladigan barcha usullar talabaning ushbu ijodiy faoliyatini rag'batlantirishga hamda mexanik, ma'nosiz operatsiyalarni minimallashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Tibbiy texnik tushunchani rivojlanti-rishning ahamiyati, tibbiy texnik so'zlarning, ya'ni atamalarning lotin tilidagi ma'nosini to'g'ri tushuntirish zarurati bilan bog'liq bo'lib, ularga mos keladigan tushunchalarni talqin qilish orqali erishiladi. Ma'lum bir tibbiy amaliyotni amalga oshirish jarayonida siz lotin tilida tushunishingiz va fikrlashingiz kerak, buning uchun lotincha atamalar bilan ifodalangan tushunchalarni bilishingiz kerak. Ushbu tushunchalar faqat lotin tilidagi amaliyot sharoitida hamda takrorlash ta'siri ostida shakllanadi, ammo agar o'qituvchi talabalarga bu atamalarni darsni boshlanishidan ularga tanishtirsa, talabalarda tushunchalar tezroq hamda osonroq shakllanadi. Chet tili bo'yicha davlat ta'lim standartiga muvofiq chet tilini o'rganish quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan: — chet tilining kommunikativ

kompetensiyasini uning tarkibiy qismlari – nutq, til, ijtimoiy-madaniy, kompensasion, o`quv va kognitiv jihatdan rivojlantirish; → chet tilining ta`lim salohiyatini ro`yobga chiqarish orqali talabalar shaxsini rivojlantirish. Tilni amaliy bilish uchun shart-sharoit yaratish, barcha talabalarning ijodiy faolligini ko`rsatishga imkon beradigan, shuningdek, o`quv jarayonida talabalarning o`quv va kognitiv faolligini faollashtirishga imkon beradigan o`qitish uslublari va usullarini tanlash o`qituvchining asosiy vazifasidir. Talabalar axborot makonida erkin harakatlana olishlari va har qanday vaziyatda noan`anaviy qarorlar qabul qilishlari kerak. Ushbu texnologiya o`qituvchi oldida turgan ta`lim vazifalari va ularni hal qilish usullariga mutlaqo yangicha qarash imkonini beradi, an`anaviy hayotiy muammolarni nostandart hal qilish usullarini taklif qiladi, o`rganishga ijodiy va tanqidiy yondashuvni talab qiladi, ya`ni unga yangilik kiritadi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бакаев Нажмиддин Бакаевич. (2022). ДИСТАНЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ КАК СРЕДСТВО ОБМЕНА УЧЕБНОЙ ИНФОРМАЦИЕЙ НА РАССТОЯНИИ. EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(2), 278–282. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6282694>
2. Bakaev N.B. (2022). METHODOLOGICAL BASIS OF MASTERING FOREIGN LANGUAGE. EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(3), 146–150. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6378840>
3. Бакаев Нажмиддин Бакаевич, Рахмонов Сухроб Бахриддинович. (2022). ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В СОВРЕМЕННЫХ РЕАЛИЯХ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6585277>
4. Бакаев Нажмиддин Бакаевич. (2022). ПРОБЛЕМЫ ОБУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОЙ АНАТОМИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В ПОЛИЛИНГВАЛЬНОЙ ГРУППЕ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(9), 49–56. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7073544>
5. Shahobiddin Sharofiddinovich Shodiev, Najmiddin Bakaevich Bakaev, Nafisa Zainiddinovna Tasheva STUDYING PHILOSOPHICAL REALITIES OF THE RENAISSANCE EPOCH, BASED ON THE STRUCTURAL ANALYSIS OF PHILOSOPHICAL TEXTS // Academic research in educational sciences. 2021. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/studyingphilosophical-realities-of-the-renaissance-epochbased-on-the-structural-analysis-ofphilosophical-texts>.
6. Shahobiddin Sharofiddinovich Shodiev. Bakaev Najmiddin Bakaevich. expressions.. (2020). The role of the Latin language in the history of world statehood. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 367-372. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-05-85-71>
Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC: 1203 . THE ROLE OF THE LATIN LANGUAGE IN THE HISTORY OF WORLD STATEHOOD.
7. Shodiyev Shaxobiddin Sharofiddinovich, & Tasheva Nafisa Zayniddinovna. (2021). THE ROLE OF THE WAY OF THE GREAT STEPPE IN THE CONTINUITY AND RELATIONSHIP OF THE PHILOSOPHY AND CULTURE OF THE MUSLIM EAST AND THE RENAISSANCE WEST. Innovative Academy Research Support Center, 1(3), 9–13. <http://doi.org/10.5281/zenodo.4925956>.
8. Najmiddin BAKAYEV Psychological and Pedagogical Bases for Developing Students' Medical-Technical ThinkingXorijiy lingvistika va

lingvodidaktika – Зарубежная лингвистика и лингводидактика – Foreign Linguistics and Linguodidactics Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/foreign-linguistics> Issue – 2 № 5 (2024) / ISSN 2181-3701

9. Bakayev, N. (2024). PSYCHO-METHODICAL BASIS OF DEVELOPING STUDENTS' MEDICAL THINKING ABILITIES. В YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI (Т. 2, Выпуск 11, сс. 68–71). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14523243>

10. Bakayev, N. B. (2024). THE ROLE OF LATIN LANGUAGE IN THE WORLD STATEHOOD. В CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH (Т. 2, Выпуск 12, сс. 56–59). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14513855>



**INNOVATIVE
ACADEMY**